

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

"RO'YXATGA OLINDI"

№ VM-343-53406-3.20.01

"1" iyul 2003 y.

"TASDIQLANDI"

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus
ta'lim vazirligi**

"8" iyul 2003 y.

**MUTAXASSISLIKKA KIRISH
fanidan
DASTUR**

**Oliy ta'limning 340000 - "Biznes va boshqaruv"
ta'lim sohasidagi 5340600 - "Moliya"
bakalavriat yo'nalishi uchun**

Toshkent - 2003

Tuzuvchilar: dots. Jamolov X. N.,
k.o'q. Norqulov A. X.

Taqrizchilar: i.f.n. Xaydarov N.,
dots. Alieva L.

"Mutaxassislikka kirish" fani bozor iqtisodiyoti sharoitida bakalavriatning "Moliya" yo'nalishi bo'yicha malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun ularda mutaxassislik to'g'risida dastlabki tasavvur va xususiyatlari tushunchalar hosil qilishni, moliyachi-iqtisodchi faoliyatiga qo'yilayotgan yangi talablar asosida kasbiy ko'nikmalarni shakllantirishni, oliy o'quv yurtida ta'lim jarayonining tashkil etilishi va olib borilishi haqida bilim berishni ko'zda tutadi. Shuning bilan birga mazkur fan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi asosida malakali mutaxassislar tayyorlashga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan ham tanishtiradi.

Курс "Введение в специальность" предусматривает ознакомление студентов с основными теоретическими понятиями по направлению специальности бакалавриата "Финансы" и формирование профессиональных навыков в соответствии с новыми требованиями к экономистам-финансистам, выполнения цели по организации учебного процесса и подготовке квалифицированных кадров в высших учебных заведениях. Изучения этого курса создаст возможность ознакомления с новыми требованиями подготовки высококвалифицированных специалистов в соответствии с Законом "Об образовании" и Национальной Программой подготовки кадров.

The course "Introduction to specialization" has a great implication in terms of market economy for fullfilling the aim of organization of educational process and prepearing efficient specialists in High educational institutes. Studying this course will pave the way for prepearing high qualified specialists in accordance with requirements of the national programme of prepearing specialists.

Dastur Toshkent moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 25 aprel 9-sonli bayonnoma).

Dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi oliy o'quv yurtlariaro ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash majlisida muhokama qilingan hamda nashrga tavsiya etilgan (2003 yil 1 iyul 37-sonli majlis bayoni).

1. SO'Z BOSHI

"Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitishning maqsadi va vazifasi

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 16 avgustdagi 343-sonli Qarori bilan tasdiqlangan ta'lim standartiga binoan bakalavriatning "Moliya" yo'nalishi talabalariga "Mutaxassislikka kirish" fani o'qitiladi.

"Mutaxassislikka kirish" kursi bozor iqtisodiyoti sharoitida malakali mutaxassislarni tayyorlash, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablar

Bu kursni o'rganish jarayonida talabalar mamlakatda ta'limga tegishli bo'lgan qonun va me'yoriy hujjatlarni, shuningdek oliy dargohda o'qitiladigan fanlar to'g'risida ma'lumotlarni bilishlari hamda o'quv, ilmiy, mustaqil ta'lim jarayonlarini o'rganishlari, o'z mutaxassisliklari xususiyatlari to'g'risida bilimga ega bo'lishlari shart bo'ladi.

O'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan aloqasi

Bu fan boshqa barcha institutda o'qitiladigan "Moliya", "Davlat byudjeti", "Moliyaviy menejment", "Nobyudjet fondlar" kabi fanlar bilan uzviy bog'liq.

Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar

"Mutaxassislikka kirish" fanini o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyasining tarkibiy qismlar:

- o'quv maqsadlari va vazifalari katalogini ishlab chiqish;
- o'quv jarayonlarini nazorat qilish (test) topshiriqlariga ko'chirish;
- o'quv maqsadlariga erishish;
- rejalashtirilgan maqsadlarni baholash.

Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalari

"Mutaxassislikka kirish" kursi 1-semestrda o'qitiladi. Bu kursni o'qitish jarayonida talabalarni faqat bilimlarini nazorat qilish va bayonlashdagina emas, balki ularni shakllanishida ham keng qo'llaniladigan variantlar va testlar ishlab chiqishi hamda ulardan foydalanish lozim.

Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi

Oliy kasbiy ta'limning davlat standartlarida mazkur kursga 54, shu jumladan 36 - ma'ruza, 18 - amaliy mashg'ulot soatlari ajratilgan. Ushbu fan bo'yicha darslarni tashkil etish I o'quv semestriga mo'ljallangan.

2. FAN DASTURI

Fanning mazmuni

Mutaxassislikka kirish fanining maqsadi va vazifalari:

"Mutaxassislikka kirish" fanining tarixi. Fanning oldiga qo'ygan maqsadi. *Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda "Ta'lim to'g'risida"* gi Qonundan kelib chiqadigan vazifalar.

Institut tarixi

Toshkent Moliya Institutining tashkil topishi. Institutda mavjud mutaxassislik va ixtisosliklar. Institut jamoasi va boshqaruv strukturasi. Institutning *taraqqiyot yo'nalishlari*. Institutning kadrlar tayyorlash milliy dasturini bajarilishdagi o'rni va roli. *Kelajakdagi vazifalar*, "Moliya ishi" mutaxassisligi zaruriyati, faoliyat jabhalari, vazifalari. Mutaxassislar tayyorlash tendentsiyasi va dinamikasi.

O'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o'qitish shakllari, o'quv rejasi va dasturlari

O'quv jarayonini fan va texnikadagi so'nggi yangiliklardan kelib chiqqan holda tashkil etish. *Ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish asoslari*. O'quv jarayonida namunaviy o'quv rejasi va dasturlari, ularni ishlab chiqish, tasdiqlash hamda amalda qo'llash. Mutaxassislikni o'rgatuvchi fanlarni o'qitishning *o'ziga xos xususiyatlari*.

Talabalarning mustaqil ishlashini tashkil etish

Mustaqil ishlarning o'quv jarayonida tutgan o'rni. Mustaqil ishlar tematikasi. Mustaqil ish - ta'limning asosiy shakli sifatida. Talabalar bilim saviyasini oshirishda *mustaqil o'qishning* ahamiyati. *Kitob ustida ishlash* va uning bosqichlari.

Talabalarning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlari va ularni tashkil qilish

Ilmiy-amaliy konferentsiyaning o'quv jarayonida tutgan o'rni. *Talabalarning o'quv hamda ilmiy tadqiqot ishlarini tashkillashtirish*. Fanlar bo'yicha to'garaklar tashkil etish. *Kurs, malakaviy bitiruv ishlari va hisobotlarni yozish qoidalari*.

Reyting tizimini tashkil qilish va Yakuniy Davlat Attestatsiyalarini topshirish tartibi

Reyting tizimi va uning o'quv jarayonida tutgan o'rni. *Joriy, oraliq va yakuniy baholashni* o'tkazish tartiblar. Talabalar bilimni baholashda ball tizimining afzalliklari.

Yakuniy Davlat attestatsiyasini tashkil etish. Talabalarni malakali mutaxassis bo'lib etishishlarida mutaxassislik fanlarining ahamiyati.

"Moliya" yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilarning kasbiy ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar

Moliyachi-iqtisodchi mutaxassislariga qo'yilayotgan yangi talablar. "Moliya" yo'nalishini tugallagan mutaxassislarning ish o'rinlariva faoliyati, yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish, *kelajakda o'z bilimini oshirish imkoniyatlari.*

Bakalavriatning "Moliya" yo'nalishi bitiruvchilari uchun magistratura mutaxassisliklarida o'qish imkoniyatlari

Yangi ta'lim standartlarida oliy ta'limning magistratura bosqichi. Magistratura bosqichida bakalavriatning tegishli yo'nalishiga oid mutaxassisliklar tavsifi. Magistraturada o'qish imkoniyatlari va talabalar bilimiga qo'yiladigan asosiy talablar. *Magistratura bitiruvchilarini ish bilan ta'minlanish istiqbollari.*

3. AMALIY MASHG'ULOTLARNING MAVZULARI

Mutaxassislikka kirish fanining maqsadi va vazifalari

"Mutaxassislikka kirish" fanining tarixi. Fanning oldiga qo'ygan maqsadi va vazifalari. Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi* hamda "Ta'lim to'g'risida" gi Qonundan kelib chiqadigan vazifalar.

Institut tarixi

Toshkent Moliya Instituti tashkil topishi, unda mavjud mutaxassislik va ixtisosliklar. Institut taraqqiyotining yo'nalishlari*, uning kadrlar tayyorlash milliy dasturini bajarilishdagi o'rni va roli. "Moliya ishi" mutaxassisligi zaruriyati, ish jihatlarini hamda vazifalari. Mutaxassislar tayyorlash tendentsiyasi va dinamikasi.

O'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o'qitish shakllari, o'quv rejasi va dasturlari

Ma'ruza va amaliy darslar*ni tashkil etish asoslari. O'quv jarayonida namunaviy o'quv rejasi* va dasturlari, ularni ishlab chiqish, tasdiqlash hamda amalda qo'llash. Mutaxassislikni o'rgatuvchi fanlarni o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari*.

Talabalarni mustaqil ishlashini tashkil etish

Mustaqil ishlar*ni o'quv jarayonida tutgan o'rni. Mustaqil ish talabalarning ta'lim olishdagi asosiy ishi sifatida. Kitob ustida ishlash xususitlari* va uning bosqichlari.

Talabalarning o'quv ilmiy tadqiqot ishlari va ularni tashkil qilish

Talabalarni o'quv tadqiqot* hamda ilmiy ishlarini* tashkillashtirish. Fanlar bo'yicha to'garaklarni tashkil etish. Kurs, malakaviy bitiruv ishlari va hisobotlarni* yozish tartibi.

Reyting tizimini tashkil qilish va Yakuniy Davlat Attestatsiyalarini topshirish tartibi

Reyting tizimi* va uning o'quv jarayonida tutgan o'rni. Talabalar bilimini baholashda ball tizimining afzalliklari. Yakuniy Davlat attestatsiyasini* tashkil etish.

"Moliya" yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilarning kasbiy ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar

"Moliya" yo'nalishini tugallagan mutaxassislarining ish o'rinlariva faoliyati, yangi informatsion texnologiyalardan foydalanish, kelajakda o'z bilimini oshirish imkoniyatlari.

Bakalavriatning "Moliya" yo'nalishi bitiruvchilari uchun magistratura mutaxassisliklarida o'qish imkoniyatlari

Magistratura bosqichida bakalavriatning tegishli yo'nalishiga oid mutaxassisliklar tavsifi*. Magistraturada o'qish imkoniyatlari va talabalar bilimiga qo'yiladigan asosiy talablar. Magistratura bitiruvchilarining ish bilan ta'minlanish istiqbollari*.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA-NAMOYISH MATERIALLARI: INFORMATSION-TEXNIK VOSITALAR

Internet saytlari: www.referat.ru, www.choyhona.uz.

Audio-video jihozlar. – Mavzuga bag'ishlangan video kassetalar.

Kodoskop orqali ko'rsatiladigan slaydlar:

- Institut tarixi mavzusi bo'yicha 2 ta slayd;
- Talabalarning o'quv, ilmiy tadqiqot ishlari va ularni tashkil qilish mavzusida 2 ta slayd;
- Mutaxassislarining ish faoliyati mavzusi bo'yicha 2 ta slayd.

5. O'ZLASH TIRISH NAZORATI

Fan bo'yicha talabalarning o'zlashtirishlarini baholash semestr (o'quv yili) davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi:

- joriy baholash (JB);
- oraliq baholash (OB);
- yakuniy baholash (YaB).

JB va OB turlar va belgilangan ballar miqdori (o'quv rejasida fanga semestr (o'quv yili) uchun ajratilgan soatning)70% , yakuniy baholash esa 30% miqdorida belgilanadi.

Fan bo'yicha dastur to'la o'tilgandan keyin YaBda yozma ish o'tkaziladi.

Tayanch asoslangan yozma ishni o'tkazish tartibi "Reyting tuzishning yakuniy baholash bosqichida" "Yozma ish" usulini tatbiq etish bo'yicha namunaviy Nizom bilan belgilanadi. Semestr o'quv yili davomida o'qitilgan fan bo'yicha 55 va undan yuqori foizni to'plagan talaba qoniqarli o'qiyotgan deb hisoblanadi. Fan bo'yicha maksimal ballning 55% idan kam ball to'plagan talaba qoniqarsiz o'qiyotgan (akademik qarzdor) deb hisoblanadi.

Semestr davomida fan bo'yicha to'plagan ballar quyidagi o'zlashtirish ko'rsatkichlari bilan baholanadi:

- 86 - 100% - "a'lo";
- 71 - 85% - "yaxshi";
- 55 - 70% - "qoniqarli".

6. ADABIYO TLAR

Asosiy adabiyot

1. Karimov I.A. O'zbekiston: Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. -T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari -T.: O'zbekiston, 1997.
3. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 30 dekabrda gi "O'zbekiston Respublikasining 2003 yilda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va davlat byudjetining parametrlari to'g'risi"da gi 455-sonli Qarori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 3 sentyabrdagi "Byudjet tashkilotlarini mablag' bilan ta'minlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari haqida"gi 414-sonli Qarori.
5. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunchiligi. -T.: O'zbekiston, 2001.
6. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunchiligi. -T.: O'zbekiston, 2002.
7. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi amalda. -T.: 1999.
8. Abdurahmonov A. Saodatga eltuvchi bilim. -T.: 2001.
9. Aminov M., Madvalieva A. Ish yuritish. -T.: 2000.
10. Bogataya Yu.V., Shvander V.A. Ekonomicheskoe upravlenie biznesom. -M.: YuNITI-DANA, 2001.

11. Kuznetsova O.D. Istoriya ekonomiki. -M.: Infra-M, 2000.
12. Lipsits I.V. Vvedenie v ekonomiku i biznes ekonomika dlya ekonomistov. -M.: Vita-Press, 2000.
13. Lyubimov L.L. Vvedenie v ekonomicheskuyu teoriyu. -M.: Vita-Press, 1999.
14. Melnikov N.K. Osnovi ekonomiki i predprinimatelstva. Ekoperspektiva, 2001.
15. Politologiya. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun qo'llanma. -T.: 1998.
16. Ribalkin P. Analiz ekonomiki. -M.: 2000.
17. Strigin A.V. Mirovaya ekonomika. -M.: Ekzamen, 2001.
18. Sa'dullaev N. Kichik va o'rta biznesga yo'l. T. 2000.
19. Xarris L. Denejnaya teoriya: per. s angl. / Obshch. red. i vstup. statya V.M. Usoskina. -M.: Progress, 1997.
20. Xusanov N., Miraxmedova Z., Shokirova S. Mutaxassislik tili. -T.: TMI, 2000.
21. O'lmasov A. Oila iqtisodi. -T., 1998.
22. O'quv adabiyotini yaratish va uni baholash mezonlari. -T., 1998.
23. Qurbonov Sh.E., Seytxalilov E.A. Natsionalnaya model i programma po podgotovke kadrov – dostizhenie i rezultat nezavisimosti Uzbekistana. -T., 2001.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Badmaev B.Ts. Psixologiya: kak eyo izuchit i usvoit. -M., 1997.
2. Voyshvilo E.K. i dr. Logika. -M.: VLADOS, 1998.
3. Gorelov A.A. Kontseptsii sovremennogo estestvoznaniya. -M., 1998.
4. Grigorev B.V. Klassicheskaya logika. -M.: VLADOS, 1998.
5. Krapivinskaya S.E. Sotsialnaya filosofiya. - M., 1998.
6. Timofeev M.I. Dengi pod nogami. 2-izd, -M.: INFRA-M, 2001.
7. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment. -T., 2001.
8. Xanttse E. i dr. Teoriya upravleniya kadrami v rinochnoy ekonomike. -M., 1999.
9. Xolopova T.I. i dr. Protokol i etiket dlya delovix lyudey. 2-izd, -M.: INFRA-M, 1999.
10. Yusupov Yu.B. Stanovlenie i razvitiya ekonomicheskoy nauki. -T.: AO "Uchqun", 1999.
11. Drobozina Z.S. Finansi. -M.: Yuniti, 2002 g.
12. Kovaleva V.A. Finansi predpriyatiy. -M.: Finansi i statistika, 2002.